




O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO‘MITASI

O‘zbekiston Respublikasida qurilish sohasini rivojlantirish




2022- YIL
YANVAR-SENTABR

Qurilish ishlari hajmi, mlrd. soʻmda



2022- yilning yanvar- sentabr oylarida, Oʻzbekiston Respublikasida jami **94 117,9** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʼati 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **106,3 %** ni tashkil etdi.

Yillar kesimida oʻsish surʼati *yanvar-sentabr oylari boʻyicha*



Maʼlumot uchun: qurilish faoliyati bu – oʻz-oʻzidan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hajmlari va boshqalar natijasidir

Hududlar kesimida, mlrd. so'mda



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida xususan, Toshkent shahri, Toshkent viloyati va Samarqand viloyatida qurilish ishlarining yuqori hajmlari qayd etildi.


Hududlar kesimida, xususan, Sirdaryo, Jizzax va Xorazm viloyatida qurilish ishlari past korsatkichlari qayd etildi.

Kapital qurilishning pudrat usuli qurilish jarayonida qatnashayotgan ikki tomon – buyurtmachi va bosh pudratchi (pudratchi) orasidagi munosabatlarni belgilab beruvchi qurilish pudrat shartnomalari asosida bajarilgan qurilish hamda boshqa ishlar shakli hisoblanadi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari 2022- yil yanvar-sentabrda

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari, foizda



- Bino va inshootlar qurish
- Fuqarolik obyektlarini qurish
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi.


Qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatkichlar shuni ko'rsatdiki:

binolar va inshootlar qurilish yo'nalishi 68,0 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 2021- yilning mos davriga nisbatan 103,9 foizga oshgan;

fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 21,6 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 106,1 foizga yetdi;


ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 10,4 foiz ulushni va 126,0 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari Hajm, mlrd. so'm





Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi 2022- yil yanvar-sentabr



Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan 19974,1 mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 30,9 % ni tashkil etdi.



Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan 28795,0 mlrd. so'm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 44,5 % ni tashkil etdi.



Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hisssasi 15931,2 mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 24,6 % ni tashkil etdi.



Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **68,7 %** i yoki **64 700,3** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.


Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi 2022- yil yanvar-sentabr



	Yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirish	Ulushi jamiga nisbatan % da
O'zbekiston Respublikasi*	64 700,3	100,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2 462,1	3,8
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	3 534,6	5,5
Buxoro	3 954,1	6,1
Jizzax	2 107,5	3,3
Qashqadaryo	3 368,9	5,2
Navoiy	3 240,2	5,0
Namangan	3 627,8	5,6
Samarqand	4 497,2	7,0
Surxondaryo	3 613,0	5,6
Sirdaryo	1 364,7	2,1
Toshkent	4 015,5	6,2
Farg'ona	4 544,7	7,0
Xorazm	2 843,9	4,4
Toshkent sh.	14 093,9	21,8

**hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmni qo'shgan holda*

2022- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo'yicha yuqori hajm, Toshkent shahri (14093,9 mlrd. so'm), Farg'ona viloyati (4544,7 mlrd. so'm), Samarqand viloyati (4497,2 mlrd. so'm) va Toshkent viloyatida (4015,5 mlrd. so'm) qayd etildi.




- Yirik qurilish tashkilotlari
- Kichik korxonalar va mikrofirmalar
- Norasmiy sektor

Bino va inshootlarni qurish O'sish sur'ati



Bino va inshootlarni qurish, mlrd. so'm




Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 25,9 % ni tashkil etib, 2021- yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 1,5 % punktga ko'paydi.


Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 2,4 % punktga kamayib, 45,9 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 0,9 % punktga kamayib, 28,2 % ni tashkil etdi.


Hududlarning hajmi va o'sish sur'ati (mlrd. so'm va foizda)



Hajm va o'sish sur'ati (oy ko'rsatkichlari)



MA'LUMOT UCHUN: Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'ati Jizzax viloyati (2021- yilga nisbatan 131,0 %), Navoiy viloyati (2021- yilga nisbatan 120,7 %), Farg'ona viloyati (2021- yiliga nisbatan 116,2 %) va Surxondaryo viloyati (2021- yiliga nisbatan 116,0 %)ga to'g'ri keldi.




Fuqarolik obyektlarini qurish O'sish sur'ati

96,5 % Yirik qurilish tashkilotlari

110,3 % Kichik korxonava mikrofirmalar

261,4 % Norasmiy sektor


Fuqarolik obyektlarini qurish, mlrd. so'm




Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 28,2 % ni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-sentabr, oylariga nisbatan 2,8 % punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonava mikrofirmalar ulushi mos ravishda 71,6 % (2,7 % punktga ko'payish) hamda norasmiy sektorning ulushi 0,2 % ni tashkil etdi (0,1 % punktga ko'payish).


Hududlarning hajmi va o'sish sur'ati (mlrd. so'm va foizda)



Hajm va o'sish sur'ati (oy ko'rsatkichlari)



MA'LUMOT UCHUN: Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'ati Samarqand viloyati (2021- yilga nisbatan 316,9 %), Toshkent viloyati (2021- yilga nisbatan 146,5 %) va Qoraqalpog'iston Respublikasi (2021-yiliga nisbatan 113,8 %)ga to'g'ri keldi.



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari O'sish sur'ati

111,0 %

Yirik qurilish tashkilotlari

131,6 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari, mlrd. so'm

2 355,4

Yirik qurilish tashkilotlari

7 454,7


Kichik korxonalar va mikrofirmalar



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 3,3 % punktga ko'paydi va 24,0 % ni tashkil etdi.


Qolgan 76,0 % i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 3,3 % punktga ko'paydi.

Hududlarning hajmi va o'sish sur'ati (mlrd. so'm va foizda)



MA'LUMOT UCHUN: Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'ati Namangan viloyati (2021-yilga nisbatan 254,4 %), Toshkent viloyati (2021- yilga nisbatan 210,7 %), Surxondaryo viloyati (2021- yilga nisbatan 168,7 %) va Qoraqalpog'iston Respublikasi (2021- yilga nisbatan 162,1 %)ga to'g'ri keldi.

Hajm va o'sish sur'ati (oy ko'rsatkichlari)






2022- yil yanvar-sentabr oylari uchun korxonalar turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da


Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.






Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2022- yil yanvar-sentabr oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Yirik qurilish tashkilotlari, ulushi % da



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 24657,6 milliard so'mni tashkil etdi. 2021-yilga nisbatan ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlarining o'sish sur'ati 106,7 foizga yetdi va ularning umumiy hajmdagi ulushi 0,1 foizga oshib, 26,2 foizni tashkil etdi.






Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2022- yil yanvar-sentabr oylarida bajarilgan ishlar Hududlar va oylik ko'rsatkichlari

Hududlarning hajmi va o'sish sur'ati
(mlrd. so'm va foizda)

Hajm va o'sish sur'ati
(oy ko'rsatkichlari)




MA'LUMOT UCHUN: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Toshkent shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 34,2 % i), Sirdaryo viloyati (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 24,6 % i) va Navoiy viloyati (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 21,4 % i)ga to'g'ri keldi.



Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 2022- yil yanvar-sentabr oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, ulushi




2022- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 54,6 % i to'g'ri kelib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 0,2 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 104,5 % ni tashkil etgan holda 51 363,2 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

2021- yil
yanvar-sentabr

2022- yil
yanvar-sentabr

Hajm va o'sish sur'ati
yillar bo'yicha






2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan ishlar

Hududlar va oylik ko'rsatkichlari


Hududlarning hajmi va o'sish sur'ati
(mlrd. so'm va foizda)

Hajm va o'sish sur'ati
(oy ko'rsatkichlari)




Ma'lumot uchun: ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Toshkent shahrida (12 431,6 mlrd. so'm yoki umumiy ko'rsatkichning 53,4 % i), Toshkent viloyatida (4 832,0 mlrd. so'm yoki 57,2 % i), Samarqand viloyatida (4 199,4 mlrd. so'm yoki 66,3 % i) qayd etildi.


Norasmiy sektor, ulushi foizda



Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 19,2 foizni yoki 18097,2 mlrd. soʻmni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-sentabriga nisbatan oʻsish surʻati 111,0 foizga yetdi. Shundan 13355,6 mlrd. soʻmi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga toʻgʻri kelib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 115,8 foizni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 2575,6 mlrd. soʻmni va oʻsish surʻati 97,1 foizni, 2166,0 mlrd. soʻmlik yakka tartibda turar-joylarni taʼmirlash ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 101,8 foizni tashkil etdi.


Hajm va oʻsish surʻati yillar boʻyicha





2022- yil yanvar-sentabr oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmidagi norasmiy sektor

Hududlar va oylik ko'rsatkichlari




Ma'lumot uchun: ko'rib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Toshkent shahrida (2870,6 mlrd. so'm yoki 2021- yilning yanvar-sentabriga nisbatan o'sish sur'ati 135,1 % ni tashkil etdi), Qoraqalpoqiston Respublikasida (800,0 mlrd. so'm yoki 125,3 %) Farg'ona viloyati (1419,1 mlrd. so'm yoki 118,2 %) va Qashqadaryo viloyatida (1328,0 mlrd. so'm yoki 117,6 %) qayd etildi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **2937,7** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **91180,2** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning respublikadagi ulushi mos ravishda **3,1 %** va **96,9 %** ni tashkil etdi.



yanvar-sentabr oylarida hajm, mlrd. so'm

● Davlat mulki ● Nodavlat mulk

2937,7
mlrd. so'm
Davlat mulki

91180,2
lrd. so'm
Nodavlat mulk

Ma'lumot uchun: nodavlat mulk obyektlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Surxondaryo viloyatida (ushbu viloyatdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 99,6 foizi), Jizzax viloyatida (qurilish ishlar umumiy hajmining 99,0 foizi) va Samarqand viloyatida (ushbu viloyatdagi umumiy qurilish ishlarining 98,1 foizi) qayd etildi.



USLUBIY TUSHUNTIRISHLAR

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari maydoni rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Kapital qurilishga pudrat shartnomasi – bunda pudratchi shartnomada belgilangan ishlarni amalga oshirishi yoki havf-xatarni o'ziga olgan holda obyektни qurish va shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa, pudratchiga qurilish maydonini ko'rsatadi yoki ish jabhasini ta'minlaydi, ularni qabul qiladi va to'lovlarni amalga oshiradi.

Qurilish tashkilotlariga – barcha umumiy qurilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, mexanizatsiya boshqarmalari, ishga tushirish va sozlash tashkilotlari, neft va gaz uchun qidiruv quduqlari qurilishi bilan bog'liq chuqur qidiruv burg'ulash ishlari va boshqa ishlarni amalga oshiruvchi, shuningdek, kapital qo'yilmalar hisobiga qurilayotgan neft va gaz uchun ekspluatatsiya quduqlari qurilishi bilan shug'ullanuvchi burg'ulash tashkilotlari kiritiladi.



Investitsiyalar va qurilish
statistikasi boshqarmasi

Tel. 71 202-80-56